

## HERMANN HESSE HIKOYALARIDA LIRIZM VA FALSAFIYLIK TALQINI

**Abdullayeva Ulfat Turaxonovna,**  
Toshkent davlat agrar universiteti  
Xorijiy tillar kafedrasini mudiri, dotsent  
[ulfatoy.abdullayeva@inbox.ru](mailto:ulfatoy.abdullayeva@inbox.ru)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada, Herman Hessening “Muz ustidagi oshiq” nomli hikoyasi tadqiq qilindi. Hikoyadagi syujet vositalari, xarakter ruhiyati va lirik ifoda uygʻunligi haqida nazariy-ilmiy mulohazalar asoslandi. Talqin va tasvirdagi kuchli ehtiros masalasi yozuvchining oʻz nuqtai nazari bilan yuzaga chiqish uslubi ekanligi dalolatlandi.

**Kalit soʻz:** lirizm, talqin, ifoda, falsafa, etika, syujet, hikoya, vaqt, tasodif.

**Аннотация.** В данной статье исследуется рассказ Германа Гессе “Влюбленный на льду”. Обоснованы теоретико-научные соображения о сюжетных средствах, психологии характера и гармонии лирического выражения в рассказе. Было доказано, что проблема сильной страсти в интерпретации и изображении является стилем выявления писателя с его точки зрения.

**Ключевые слова:** лиризм, интерпретация, выражение, философия, этика, сюжет, рассказ, время, случайность.

**Abstract.** This article examines Herman Hesse's short story “*Lover on Ice*”. Theoretical and scientific considerations regarding the harmony of plot devices, character psychology, and lyrical expression in the story were substantiated. It has been proven that the issue of strong passion in interpretation and depiction is the writer's way of emerging from his own point of view.

**Keywords:** lyricism, interpretation, expression, philosophy, ethics, plot, story, time, coincidence.

**Kirish.** Eposning ajralmas halqasi bu voqelik va lirik talqinda namoyon boʻladi. Hermann Hesse XX asrning toʻrtinchi yarmigacha qadar ijod qilarkan, uning ruhida mudomi lirika bilan epik ruhiyat chogʻishib yashadi. Chunki shoir sheʼrlarida tabiatni oʻta goʻzal, fusunkor tasvirlar, bu tasvirlar esa hayotning oʻzidek maftunkor tuyulardi. Benazir yozuvchi oʻz davrida ayni shu katta potensial bilan ijod etar, ingliz va nemis adiblari uni mukammallashuvi bilan eʼtirof qilib, sevib mutolaa qilardi. Yozuvchi har bir kichik-kichik asarlarida ham lirik “men” tushunchasini namoyon qilib, oʻz tafakkur bulogʻidan oʻzgalarni ham bahra olishiga yetaklardi. Tarjima qilingan asarlari dunyoning yuzlab tillarida xuddi nemis ruhiyati kabi javlon urardi.

**Adabiyotlar tahlili.** Mazkur maqolada Hermann Hesse ijodiga oid ilmiy va adabiy manbalar, xususan, uning hikoyalarida lirizm va falsafiy tafakkur uygʻunligini yorituvchi qarashlar tahlil qilindi. Shuningdek, Dilmurod Quronov hamda Uzoq Joʻraqulovning nazariy ishlari asosida hikoya janrining poetik xususiyatlari, syujet va nuqtai nazar masalalari oʻrganildi. Tahlil natijasida Hesse asarlarida individual ruhiyat, ichki kechinmalar va estetik idrokning uygʻunligi yetakchi tamoyil sifatida namoyon boʻlishi aniqlandi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqot jarayonida qiyosiy-tahliliy, struktural va interpretatsion metodlardan foydalanildi. Asarning badiiy xususiyatlarini ochishda matn tahlili hamda konseptual yondashuv asosiy metodologik asos sifatida qoʻllanildi.

**Tahlillar va natijalar.** O‘zbek adabiyotida Herman Hesseni shoir va yozuvchi sifatida taniymiz. Biroq uning romanlaridagi o‘zligini qidirib borayotgan obrazlar qanchadan-qancha ekanligini kuzatamiz. Bu haqda muallif shunday yozadi: “Zero, har birimiz o‘z shaxsiy hayotimizning turli davrlarida goh u, goh bu guruhlariga mansub bo‘lishimizga to‘g‘ri kelishini ham unutmasligimiz lozim. Shunga ko‘ra, eng avvalo, sodda kitobxonni olib ko‘raylik. Har birimiz ham damba-dam ana shunday o‘quvchi qiyofasida namoyon bo‘lib turamiz. Bunday kitobxon, hindular haqidagi kitobchani o‘qiyotgan bolakay yo graf ayol hayoti to‘g‘risida hikoya qiluvchi romanni mutolaa qilayotgan oqsoch xotin yoki Shopengauerni o‘rganishga kirishgan talaba bo‘ladimi, ovqatni paqqos tushiradigan sertomoq xo‘randa singari, kitobni «yutib yuboradi». Bunday o‘quvchining kitobga bo‘lgan munosabatini bir shaxsning ikkinchi shaxsga nisbatan munosabatidek, deb bo‘lmaydi, balki aksincha, ot suliga yo hattoki ot izvoshchiga qanday munosabatda bo‘ladigan bo‘lsa, xuddi shunday deyish mumkin: kitob yetaklaydi, kitobxon esa unga ergashadi. Kitob syujet (asosiy mazmun)i xolisona, beg‘araz voqelik sifatida idrok qilinadi”. To‘g‘ri qayd etganidek, mutolaa zavqi voqelikni anglash bosqichlarini kashf qilishdadir. Anglashning uzun yo‘li shundan iboratki, ko‘ngil, qalb bilan his qilinib, anglanib o‘qiladigan kitoblar ana shunday shuhratga ega bo‘ladi. Haqiqatdan ham, adibning shoirona qarashlari quyidagi hikoyasida o‘z ifodasiga egadir:

“O‘sha yili qish nihoyatda qattiq kelib, uzoq cho‘zilgan, shu bois bizdagi juda go‘zal Shvarsvald daryosi bir necha haftadan buyon qattiq muzlab yotardi. Men o‘sha g‘alati, o‘zim ham haddan ziyod qoyil qolgan tuyg‘uni hamon unutilmayman. O‘shanda qahraton sovuqning ilk kuni edi, ertalabdan oq daryoga otlandim. U shunaqangi chuqur, muz esa shunday tiniq emish, xuddi yupqa oynaning o‘zi, undan yam-yashil suv, toshli qumloqlar, g‘alati tarzda qumga singib ketgan suvo‘tlar ko‘rinib turar, ahyon-ahyonda esa baliqning qoramtir tanasi ko‘zga chalinib qolardi.

O‘rtoqlarim bilan muz ustida yuzlarimiz qizarib, qo‘llarimiz ko‘karib, yarim kunlab yaxmalak otardik, shiddatli va bir maromdagi harakatlarimizdan yuraklarimiz to‘lib-toshib, bolalik davrining beg‘am-beparvo, ajoyib va lazzatli onlaridan quvvat olardi. Biz bir-birlarimiz bilan kimo‘zarga, uzoqqa va balandlikka sakrash bo‘yicha bellashar, quvlashmashoq o‘ynardik. Oramizda hali ham eski urfdagi oyoqqa bog‘lanadigan konkida uchayotgan bola bo‘lsa, u durustgina yaxmalak otuvchi hisoblanardi. Biroq bittamizda, fabrikantning o‘g‘lida “Nalifax” rusumli konki bo‘lib, u ip yoki tasmasiz ham mahkamlanaverar, uni ko‘z ochib yumguncha bog‘lash va yechish mumkin edi”.

“Muz ustidagi oshiq” hikoyasi yosh Hesseni juda ko‘p o‘ylantirgan savollariga munosib javobidir. Bunday hikoya o‘zbek adabiyotida Isajon Sultonning “Shamolli kechada”, “Bibifotima” yoki “Kichkina pushtirang maxluqcha” nomli hikoyalaridagi kuchli lirizm, falsafiy idrok hamda chuqur ma‘noviy qatlamni tayin etadi. Demak, har

qanday ifoda negizida tasvir va talqin birikuvi namoyon bo'lsagina, hikoya mohiyatan serqatlam tarmoqlarda aks-sado beradi.

Hermann Hesse – voqelikni shunchaki gapirib bermaydi, uni inson tabiati va Alloh yaratgan go'zallik tabiati bilan uyg'un holda akslantiradi. Yuqoridagi hikoya yozuvchining kuchli ko'ngil pozitsiyali SHAXS ekanligini kafolatlaydi. Voqelik juda qisqa fursatda ro'y berishiga qaramay, xayol va hayot birligida reallikka aylanadi. Mana shu jihat har bir inson ko'nglidagi ajralmas amaliy tushunchalar desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Herman Hesse ushbu hikoyasida uch jihatga mantiqiy urg'u beradi:

1. *Yo'qsil bolalik.*
2. *Mushohadani o'z konsepsiyangga alantirish.*
3. *Pokiza muhabbat.*
4. *Ayriliq.*

Mana shu 4 ta muhim jihat qisqa hikoyani eng birlamchi ko'rinishga ega chiqishini ta'minlagan. Jumladan, "Poetikaga bag'ishlangan zamonaviy adabiyotlarda nuqtai nazarining asar kompozitsiyasidagi o'rniga ayri-ayri ahamiyat beriladi. Shunga qaramay, hali bu tushunchaga ko'pchilikni qanoatlantiradigan ta'rif berilgan emas, masalaga yondashuvlarda umumiy maxrajga keltirish lozim bo'lgan nuqtalar talaygina. Nuqtai nazar tushunchasi, sodda qilib aytsak, roviy bilan tasvirlanayotgan voqelik o'rtasidagi munosabat asosida yuzaga keladi. Bunda ikkita jihatga: 1) voqelik qaysi nuqtadan turib tasvirlanayotgani; 2) tasvirlanayotgan narsalar kimning nigohi orqali berilayotganiga diqqat qilinadi". Hesse voqelikka 3 o'lchamli olam deb qaraydi hamda shu yo'sinda o'z tilidan gapirilayotgan mulohazalarni juda qattiq ehtirosiga yo'g'rilgan tarzda namoyon etadi. Shuning uchun ham har bir masala tagida **qahramon-xarakter-voqelik** yaxlitligi qabarib ko'rinadi:

"Ilk tanishuv kamina uchun xiyla qiyin bo'ldi, chunki men hali hayotimda bironta qizni "taklif qilib" ko'rmagandim. Avvaliga do'stlarimning mana shunaqangi jiddiy marosimlar chog'ida o'zlarini qanday tutishlarini sezdirmay kuzatishga urinib ko'rdim. Ularning ba'zilari faqat mulozamat yuzasidan ta'zim qilib, qo'l uzatsalar, boshqalari tutilib qolib, allanimalarni g'uldirashar, ayrimlari esa quyidagicha ajoyib iboralardan foydalanishardi: "Marhamatingizni bizdan darig' tutmang?" Mana shu jumla menga yoqib qoldi, uyga kelib, xonamdagi pechka oldida qo'l qovushtir-ganimcha, ushbu tantanavor so'zlarni qanday aytishni mashq qila boshladim".

Insonki bor o'z taqdiriga yangidan-yangi tahrirlar kiritishni ma'qul ko'radi. Bunday noyob tushuncha fragmentida taqdir ajoyibotlari turadi. Uning aksariyat qahramonlari do'stlari, kursdoshlari, hayotda birga ulfat bo'lgan odamlardir. Mana shu odamlar Hermann Hessening farahbaxshi, ilhom onlarini tutib beruvchi "ovchi"lardir. U ko'ngil ko'zi bilan kuzatadi, o'rganadi, baholaydi hamda umumruhiyatga voqelikni olib kelib

ulaydi. Mavjudlik jumbog‘i, konseptual farazlar idrokida har bir shaxs o‘z hikoyasini kutadi. Emma ham hikoyada katta rol o‘ynaydi.

Prof. U.Jo‘raqulov bu haqda shunday mulohazalarni ilgari suradi: “Agar biz asl adabiyotni voqelik aks etgan bir ko‘zguga qiyoslaydigan bo‘lsak, hikoya janri ushbu ko‘zguning siniqlaridir. Ammo hikoyaning bor qudrati ham aynan shu siniqligida. Zarrada borliq, qatrada ummon, nur tolasida quyosh aks etishini yodga olsak, hikoyaning asl qudratini teran his qilamiz. Insonga xos ulug‘vorlik va shariflik butun borliqdan ko‘ra ustunroq bo‘lganidek (*Barchasini garchi latif aylading, Boridin insonni sharif aylading...* Navoiy), ba‘zan qatra imkoniyati ummon imkoniyatlaridan ustunlik qiladiki, jahon adabiyoti tarixida siz kuzatgan holatlar shu bilan izohlanadi. Jahon adabiyoti tarixida A. P. Chexov, S. Moem, J. London, H. Hesse, O. Genri singari mashhur hikoyanavislar bilan bir qatorda L. N. Tolstoy, U. Folkner, M. Sholoxov kabi bu janrga kamroq murojaat qilgan, ammo bir-ikki hikoyasi misolida betakror san‘at namunasini meros qoldirgan yozuvchilar ham uchraydi. Tolstoyning “Avliyo Sergiy”, Folknerning “Qora musiqa”, Sholoxovning “Xol” hikoyalari mana shunday noyob badiiy kashfiyotlar hisoblanadi”. G‘arb adabiy-badiiy tafakkuriga zimdan nazar tashlar ekanmiz, har qanday ifodaning mohiyatini tushunish lozim degan xulosaga keladi. Chunki inson har bir davrning muqaddas xilqatlariga talpinib yashaydi. Bular o‘z navbatida inson va jamiyat birligini kafolatlaydi. Hikoya xotimasi juda go‘zal yakun topgan:

“Qiz hech narsa demasdan, qo‘llarimni barmoqlari orasiga oldi, ularning haroratini qo‘lqopdan ham his etib turardim, so‘ng biz birga ucha boshladik. O‘zimni shu damda xuddi g‘aroyib tush ko‘rayotgandek his qilardim. Baxtu iqbol, sharm-hayo, samimiyat, quvonch va xijolatlik tuyg‘usidan nafasim bo‘g‘ilay derdi. Chorak soatdan mo‘lroq biz birga aylandik. Nihoyat, to‘xtash joyiga yetganimizda, u nozik qo‘llarini asta bo‘shatdi-da: “Katta rahmat”, dedi va o‘zi yolg‘iz uchib ketdi, men esa anchadan so‘ng mo‘yna qalpog‘imni yechdim va turgan yerimda uzoq qolib ketdim. Shundan keyingina uning o‘tgan butun vaqt davomida bir og‘iz ham gapirmaganini esladim. Muzlar erib, men o‘z tajribamni boshqa takrorlay olmadim. Bu mening ilk ishqiy sarguzashtim edi. Biroq orzum amalga oshib, qizning qirmizi lablaridan ilk bo‘sa olgunimga qadar oradan talay yillar o‘tdi”.

**Xulosa.** Mulohazalarimizni birgina hikoya misolida ko‘rib chiqdik. Syujet bir vaqtning o‘zida ham xarakter, ham g‘oya, ham mazmun, ham uslub yaxlitligini uyushtiruvchi mezonlardan biri. Ayni chog‘da, adib shafqatsiz realistlik uslub bilan davrning “og‘riq”lariga baho beradi. Yozuvchida *tasodif* va *bog‘lanish* muhim komponentga evriladi. Ayniqsa, Emma bilan bir marotaba muz uchib, uning baxtu kamolini ko‘rmasa ham, o‘sha oniy baxtdan masrurlik tuyishi nihoyatda xayrli ishlarni amalga oshirishga kafolat beradi. Mana, Emmaning bir oniy lahzadagi xarakteri

bolalikning rangin lahzalari-yu, oydin va sohir orzularning ushalgan istaklari. Buning o‘zidan katta bir falsafiy idrokni yuzaga chiqarish mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘uxati:**

1. Херманн Хессе. Китоб мутолааси хақида. Ёшлик, 2019. 10-сон.
2. Қуронов Д. Назарий қайдлар. –Тoshkent: Академнашр, 2018.
3. Жўрақулов У. Кўзгу синиқлари ёхуд айтилмаган сўз қудрати. Ёшлик. 2013. №.5.
4. <https://ziyouz.uz/jahon-nasri/hermann-hesse/ermann-esse-muz-ustidagi-oshi-ikoya/>

